Darhaqiqat, tijorat banklari faoliyatiga ko'plab bank risklari ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lib, ular orasidan foiz riski, kredit riski va likvidlik riski kabi asosiylarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bunday risklar orasidan foiz riski tijorat banklarining faoliyatiga eng katta ta'sir ko'rsatadigan risk bo'lib, u foiz stavkalari (asosiy foiz stavkasi, kreditlar va depozitlar bo'yicha foiz stavkalari) dagi o'zgarishlar yoki tebranishlar natijasida bankning asosiy daromad ko'rsatkichi, ya'ni bank marjasining kamayishi yoki yo'qolishi xavfidir. Bu xavf kreditlar va depozitlar, qayta moliyalashtirish, aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi o'zaro notengliklar orqali yuzaga kelishi mumkin. Shu

sababli, tijorat banklarida foiz riskini aniqlash, baholash va samarali boshqarish bank faoliyatining smaradorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyatidagi foiz riski tushunchasi ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etiladi hamda uning tijorat banklariga faoliyati ko‘rsatkichlariga ko‘rsatadigan ta’siri amaliy nuqtai-nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, amaldagi holat tahlili asosida mamlakatimiz tijorat banklarida foiz riski bilan bog‘liq muammo va kamchiliklar ko‘rib chiqiladi hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklarida foiz riski xorijlik, MDH hamda mahalliy olim, tadqiqotchi va mutaxassislar tomonidan faol ravishda o‘rganib kelinayotgan muammolardan biri bo‘lib, quyida bu boradagi ilmiy-nazariy yondashuv va qarashlarning qisqacha tahlilini keltirib o‘tamiz.

AQSh lik tadqiqotchi Jon Stefensning fikriga ko‘ra, foiz stavkalarining o‘sishi tijorat banklarining asosiy daromad manbai hisoblangan sof foiz daromadiga ta’sir ko‘rsatish orqali ularning foydasini xavf ostiga quyadi. Bundan tashqari, foiz stavkalarining o‘sishi depozit fondi xarajatlarining oshishi sharoitida tijorat banklari aktivlari, majburiyatlari va balansdan tashqari instrumenlarining asosiy qiymatini pasaytiradi. Bu ayrim tijorat banklarining likvidligi va kapitaliga salbiy ta’sir ko‘rsatish orqali ularni qo‘llaydigan chora – tadbirlari va kapital darajalarini yangilash va kuchaytirishga majbur qiladi. Tadqiqotchining qo‘shimcha qilishicha, tijorat banklari foiz riski bo‘yicha hisobotlarning aniq va ochiq bo‘lishini ta’minlash uchun o‘z hisobot infratuzilmasining samaradorligini ham baholab borishadi [1].

AQSh lik olimlar Grant E. Rozenberger va Peter Zimmermanning qayd etishicha, moliyaviy muassasalar (shu jumladan, tijorat banklari) ko‘pincha qat’iy belgilangan nominal foiz stavkalarida kredit beradilar. Bozor foiz stavkalari ko‘tarilganda, bunday qat’iy stavkali kreditlarning qiymati pasayadi, chunki, ular beradigan daromad boshqa qat’iy daromad manbalariga qaraganda pastroq qiymatga ega bo‘ladi. Xuddi shu holat qimmatli qog‘ozlarga ham tegishli. Olimlarning aytishicha, AQSh dagi Silikon vodiysi banki (SVB) ning inqirozga yuz tutishiga asosiy sabab bo‘lib uning uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlarga kiritgan investisiyalaridan ko‘rgan yirik zararlari bo‘ldi.

Grant E. Rozenberger va Peter Zimmerman o‘z fikrlarini davom etish uchun quyidagi savolni ilgari surishadi: Nima uchun foiz riski moliyaviy muassasalar (shu jumladan, tijorat banklari) uchun muammoli hisoblanadi? Ularning javoblariga ko‘ra, odatda, moliyaviy muassasalar uchun aktiv yaqin kelajakda sotilmaguniga qadar bozordagi o‘zgarishlar natijasida kelib chiqadigan yo‘qotishlarni o‘z hisobvaraqlarida zudlik bilan hisobga olish talab etilmaydi. Bir qarashda, agar moliyaviy muassasa aktivni ushlab turishni davom ettirmoqchi bo‘lsa, u holda bu hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi; biroq, bu moliya muassasalarining amaldagidan ko‘ra yaxshiroq kapitallashuvini ham anglatmaydi [2]. AQSh lik olimlar ushbu muammoning kamida uchta sababini aniqlashgan bo‘lib, ular 1 – rasmda o‘z ifodasini topgan.

Rossiyalik tadqiqotchi Samoylov N. A. ning fikricha, foiz riski deyarli barcha kompaniyalar uchun xos bo‘lib, ular orasidan yuqori qarz yukiga ega bo‘lgan kompaniyalar bunday riskka eng ko‘p duchor bo‘lishadi, tijorat banklari bo‘lsa aynan shunday kompaniyalardir. Uning aytishicha, so‘nggi paytlarda kreditorlar kredit shartnomalarida foizlarni qoplash koeffisientining miqdori to‘g‘risidagi punktni tobora ko‘proq kiritishayotgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich kompaniya foydasining foizlarni to‘lash xarajatlaridan qanchalik ortiq ekanligini belgilab beradi. Agar kompaniyada bu ko‘rsatkich shartnomada belgilangan miqdordan pastga tushsa, u holda bank shartnomaga ko‘ra kreditni qoplashni talab qilish yoki foiz stavkasini oshirish huquqiga ega bo‘ladi. Buning natijasida kompaniyada likvidlik bilan bog‘liq jiddiy muammolar yuzaga kelishi mumkin bo‘lib, bu oxir – oqibatda uni bankrotlikka olib borishi mumkin [3].

Rossiyalik tadqiqotchining fikridan shuni bilish mumkinki, tijorat banklari o‘zini foiz riskining tahdidlaridan asrash maqsadida o‘z mijozlarining zarariga ishlaydigan usullarni qo‘llashgacha borishayotgan bo‘lib, bu Rossiyada ham tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish zarurati yuzaga kelganligidan dalolat beradi.

Rossiyalik olim Soloveva N. E. va tadqiqotchi Golubsova Yu. A. ning fikrlariga ko‘ra, foiz riski foiz stavkalarining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu risk bozor stavkalarining o‘zgarishi va ularning bank daromadlariga ta’siri tufayli aktivlar yoki majburiyatlarni qayta baholash imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Bunday holatlar stavkalar pasayganda yoki ko‘tarilganda, qat’iy belgilangan foiz stavkalari to‘lovlar amalga oshirib bo‘linganidan keyin yoki belgilangan muddatdan keyin o‘zgaruvchan bo‘lib qolganda yoxud o‘zgaruvchan foiz stavkalari ikki qayta ko‘rib chiqish sanalari o‘rtasida o‘zgarmas bo‘lganda yuzaga keladi. Shuni yodda tutish kerakki, aktivlar va majburiyatlar bo‘yicha foiz stavkalarining ikki qayta ko‘rib chiqish sanalari o‘rtasida davr bir xil yoki doimiy bo‘lmaydi. Bu kabi holatlar, shuningdek bozor va tartibga solish natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlar foiz riskining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi [4].




1– rasm. Tijorat banklari kapitallashuvining oshishiga foiz riskining ta’sir ko‘rsatish sabablari [5]

Mahalliy olim va tadqiqotchilar Yuldasheva I. Z., Xojimuxamedova Sh. I. va Baxodirov O. N. larning qayd etishicha, tijorat banki faoliyatining daromadli bo‘lishi yoki yuqori daromadlilikka ega bo‘lishi foiz riski darajasiga bog‘liq bo‘lib, banklar o‘z faoliyati jarayonida bu riskka doimo duch kelishadi. Bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lganligi tufayli, tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirishda foiz riskini to‘g‘ri boshqarish nihoyat darajada muhim ahamiyat kasb etadi [6].

1 – jadval. Maxsus foiz riskini aniqlash ma’lumotlari [7]

| Instrumentlar toifasi | Qimmatli qog‘ozlar shakllari | Risk koeffisienti, % |
|---|---|---|
| Davlat | Risksiz moliyaviy instrumentlar (AAA reytingdan AA - reytinggacha) | 0 |
| | Past riskli (A+ reytingdan VVV- reytinggacha) va so‘ndirilishi muddati 6 oygacha bo‘lgan moliyaviy instrumentlar | 0,25 |
| | Past riskli (A+ reytingdan VVV- reytinggacha) va so‘ndirilish muddati 6 dan 24 oygacha bo‘lgan moliyaviy instrumentlar | 1 |
| | Past riskli (A+ reytingdan VVV- reytinggacha) va so‘ndirilish muddati 24 oydan yuqori bo‘lgan moliyaviy instrumentlar | 1,60 |
| | Oshirilgan riskli moliyaviy instrumentlar (VV+ reytingdan V- reytinggacha) | 8 |
| | Oshirilgan riskli moliyaviy instrumentlar (V- reytingdan past) | 12 |
| | Reytingga ega bo‘lmagan moliyaviy instrumentlar | 8 |
| Qabul qilingan | So‘ndirilish muddati 6 oygacha bo‘lgan moliyaviy instrumentlar | 0,25 |
| | So‘ndirilish muddati 6 oydan 24 oygacha bo‘lgan moliyaviy vositalar | 1 |
| | So‘ndirilish muddati 24 oydan yuqori bo‘lgan moliyaviy instrumentlar | 1,60 |
| Boshqa | Oshirilgan riskli moliyaviy instrumentlar (VV+ reytingdan V- reytinggacha) | 8 |
| | Yuqori riskli moliyaviy vositalar (V-reytingdan past) | 12 |
| | Reytingga ega bo‘lmagan moliyaviy instrumentlar | 8 |

Mahalliy olim Xaydarov Z. Sh. ning xulosa qilishicha, O'zbekistonda foiz stavkalari va qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanmaganligi sababli tijorat banklari regulyativ kapitalining etarliligini hisoblashda foiz stavkalari bozori riski va qimmatli qog'ozlar bozori riski kabi xalqaro ko'rsatkichlar hisobga olinmaydi. 2017 yilning sentyabr oyidan boshlab O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish munosabati bilan tijorat banklari kapitalining etarliligini hisoblashda foiz stavkalari va qimmatli qog'ozlar bozorlari riskini hisobga olish zarur bo'lib, bu butun bir bank risklarining kamayishiga va banklarning moliyaviy barqarorligiga olib keladi, shuningdek O'zbekiston tijorat banklarining xalqaro moliyaviy bozorga chiqishi va mamlakat iqtisodiyotida investision faollik sharoitida ushbu banklarning likvidlik muammosini hal etishga ko'maklashadi [8].

Mahalliy mutaxassis Saitqulov A. N. ning fikriga ko'ra, mamlakatimizda banklarning samarali faoliyatini ta'minlovchi asosiy omil bo'lgan – foiz riski bo'yicha etarlicha mexanizmlar ishlab chiqilmaganligi va takomillashmaganligi ham real iqtisodiyotga qilinayotgan investisiyalar salmog'iga salbiy ta'sir etmoqda. Shu sababdan, u foiz riskining tavsifini ochib berishni o'zi uchun muhim hisoblab, maxsus foiz riskini aniqlash jadvalini taqdim etadi (1-jadvalga qarang). Uning aytishicha, maxsus foiz risklari moliyaviy instrumentlarning joriy bozor qiymatini 1-jadvalda keltirilgan risk koeffisientiga ko'paytirish natijasida aniqlanadi [9].

Umuman olganda, xorijlik, MDH hamda mahalliy olim, tadqiqotchi va mutaxassislarning tijorat banklarida foiz riski bo'yicha qilgan xulosalaridan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, foiz riski tijorat banklarining faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan eng asosiy risk bo'lib, u tijorat banklarining daromadlilik darajasini belgilab beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola xalqaro IMRAD tuzilmasi talablariga rioya etilgan holda tayyorlangan bo'lib, unda asosan uchta tadqiqot usuli qo'llanildi: ilmiy – nazariy tahlil usuli, nazariy-amaliy tahlil usuli va iqtisodiy – statistik tahlil usuli. Ilmiy – nazariy tahlil usuli asosan maqolaning "Mavzuga oid adabiyotlar tahlili" qismi uchun to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilishda ishlatilgan bo'lsa, iqtisodiy – statistik tahlil usuli maqolaning "Tahlil va natijalar muhokamasi" qismi uchun to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilishda ishlatildi. Nazariy-amaliy tahlil usuli bo'lsa maqolaning ushbu ikkala qismida ham ishlatildi.

Ilmiy maqola uchun ma'lumotlarni to'plash jarayonida asosan birlamchi va ikkilamchi tadqiqot manbalaridan foydalanildi. Birlamchi tadqiqot manbalaridan foydalanishda tijorat banklarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mahalliy olim, tadqiqotchi va mutaxassislar bilan o'zaro suhbatlar uyushtirilgan bo'lsa, ikkilamchi tadqiqot manbalaridan foydalanishda Google, Google Scholar va Yandeks qidiruv tizimlari, Markaziy bank va tijorat banklari rasmiy vebsaytlari, shuningdek tegishli tashkilotlarning hisobotlari va statistik byulletenlariga murojaat qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Biz yuqoridagi "Mavzuga oid adabiyotlar tahlili" da xorijlik, MDH hamda mahalliy olim, tadqiqotchi va mutaxassislarning qilgan xulosalaridan tijorat banklaridagi foiz riski asosan foiz stavkalaridagi o'zgarish yoki tebranishlar natijasi ekanligi xususida aniq tasavvurga ega bo'ldik. Tadqiqot muammosi foiz riskining tijorat banklari faoliyati ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganishga qaratilganligi bois, ushbu paragrafda foiz riskining yuzaga kelishiga sabab bo'ladigan Markaziy bank asosiy foiz stavkasi, kredit va depozitlar bo'yicha foiz stavkalari tahliliga emas, balki tijorat banklari faoliyatining amaldagi holatiga foiz riskining ta'sir darajasi qanday ekanligi tahliliga asosiy urg'uni beramiz.

Endi e'tiboringizni quyidagi 2-jadvalga qaratmoqchimiz.

2- jadval. O'zbekiston bank tizimining 2022 – 2024 yillardagi umumlashtirilgan balans ko'rsatkichlari [10]

| Ko'rsatkichlar | 2022 | | 2023 | | 2024 | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | trln so'm | mlrd doll. | trln so'm | mlrd doll. | trln so'm | mlrd doll. |
| Aktivlar | 444,9 | 41,1 | 556,7 | 49,6 | 652,2 | 52,9 |
| Likvidli aktivlar | 10,7 | 1,0 | 19,3 | 1,7 | 20,2 | 1,6 |
| Kredit tashkilotlaridagi mablag'lar | 69,6 | 6,4 | 91,9 | 8,2 | 86,5 | 7,0 |
| Investisiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar | 19,6 | 1,8 | 31,5 | 2,8 | 32,5 | 2,6 |
| Mijozlarga kreditlar | 316,4 | 29,2 | 378,9 | 33,8 | 457,8 | 37,1 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Asosiy vositalar | 11,0 | 1,0 | 14,2 | 1,3 | 19,9 | 1,6 |
| Boshqa aktivlar | 17,3 | 1,7 | 21,1 | 1,8 | 35,3 | 3,0 |
| Passivlar | 444,9 | 41,1 | 556,7 | 49,6 | 652,2 | 52,9 |
| Mijozlarning mablag‘lari | 156,2 | 14,4 | 216,7 | 19,3 | 241,7 | 19,6 |
| Moliyaviy tashkilotlarning mablag‘lari | 192,4 | 17,8 | 229,0 | 20,4 | 270,3 | 21,9 |
| Chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar | 10,6 | 1,0 | 10,9 | 1,0 | 13,2 | 1,1 |
| Subordinar qarz majburiyatlari | 4,2 | 0,4 | 6,6 | 0,6 | 9,7 | 0,8 |
| Boshqa majburiyatlar | 10,6 | 1,0 | 13,9 | 1,2 | 20,2 | 1,6 |
| Kapital | 70,9 | 6,5 | 79,6 | 7,1 | 97,1 | 7,9 |

Ushbu jadvalda bank tizimining umumlashtirilgan balans ko‘rsatkichlari tahlil qilingan bo‘lib, bunday tahlilni amalga oshirishning asosiy sababi shundaki, foiz riski bank aktivlari va passivlariga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Jadvaldan ko‘rinib turganidek, likvidli aktivlar bilan investisiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar 2024 yilda 2023 yilga nisbatan o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan bo‘lsada, biroq valyuta ayirboshlash kurslaridagi tebranishlar oqibatida dollarda hisoblaganda bu pasayish tendensiyasini ko‘rsatmoqda.

Mana shu erning o‘zida foiz riskining bank operasion faoliyatiga salbiy ta’sirini kuzatish mumkin. Chunki, valyuta ayirboshlash kursidagi o‘zgarishlar foiz riskiga bevosita bog‘liq bo‘lib, buning oqibatida bank faoliyati uchun muayyan yo‘qotishlar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois, valyuta ayirboshlash kurslaridagi tebranishlarni to‘g‘ri prognoz qilish tijorat banklarida foiz riskini boshqarish amaliyotining muhim qismlaridan biriga aylanishi kerak.

Jadvalga e’tibor qaratsangiz so‘nggi yillarda tijorat banklari kapitalining muntazam o‘sishi kuzatilgan bo‘lib, bu tijorat banklarida foiz riski tahdidlariga qarshi kurashish yoki boshqacha qilib aytganda foiz riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarning ijobiy samarasidir. Bunday ishlar quyida keltirib o‘tilgan:

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yilning 5 noyabrida imzolangan yangi tahrirdagi “Banklar va bank faoliyati” to‘g‘risidagi Qonun ham so‘nggi uch yilda tijorat banklari kapitalining oshishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu Qonunga ko‘ra, 2023 yilning 1 sentyabridan 2025 yilning 1 yanvarigacha bo‘lgan davrda tijorat banki ustav kapitalining minimal hajmi quyidagi tartibda bosqichma – bosqich oshirilishi shart etib belgilandi:

- 2023 yil 1 sentyabrgacha - 100 mlrd so‘m;
- 2023 yil 1 sentyabridan - 200 mlrd so‘m;
- 2024 yil 1 apreldan - 300 mlrd so‘m;
- 2025 yil 1 yanvardan – 500 mlrd so‘m [11].

Markaziy bank 2020 yildan boshlab tijorat banklariga ustav kapitalining minimal hajmini Qonunda belgilangan miqdorlargacha etkazish va yangi talablarni bajarish bo‘yicha tavsiyalar bera boshladi. U etarli hajmdagi ustav kapitaliga ega bo‘lmagan tijorat banklariga yangi talablarga mos kelish uchun boshqa banklar bilan birlashishni tavsiya qildi. Aks holda, ulardan bank faoliyatini amalga oshirishga ruxsat beruvchi lisenziyani qaytarib olishini ma’lum qildi (2-rasmda 2023 yilning 1 may holatiga ko‘ra ustav kapitali 200 mlrd so‘mdan kam bo‘lgan tijorat banklari to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan). Markaziy bankning yangi tahrirdagi “Banklar va bank kapitali to‘g‘risida” gi Qonun ijrosini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan aynan shu kabi chora – tadbirlari 2021 – 2023 yillarda tijorat banklari kapitalining oshishiga muhim turtki bo‘ldi.

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6207-sonli Farmoni [12], 2022 yil 17 yanvardagi “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ – 90 – sonli Qarori [13] va 2024 yil 19 apreldagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ – 162 – sonli Qarori [14] bilan Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Xalq banki, Agrobank, Mikrokreditbank va Qishloq qurilish bank (hozirgi Biznesni rivojlantirish banki) kabi davlat tasarrufidagi tijorat banklari aksiyalarini fond birjalari orqali ommaviy joylashtirishga tayyorgarlik ishlari olib borilayotganligi ham ushbu banklar kapitalining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi;

• to‘rtta tijorat banki birinchi marta evroobligasiyalar chiqarishib, xalqaro kapital bozorida 1 milliard dollar atrofidagi mablag‘ni jalb etishga muvaffaq bo‘lishdi [15].




2- rasm. Ustav kapitalining minimal hajmi 200 mlrd so'mdan kam bo'lgan tijorat banklari (2023 yilning 1 may holatiga) [16]

Endi e'tiboringizni 3-jadvalga qaratmoqchimiz. Ushbu jadvalda O'zbekiston bank tizimining 2022-2024 yillardagi foyda va zarar to'g'risidagi umumlashtirilgan hisobot ko'rsatkichlari tahlil qilingan bo'lib, foiz riski tijorat banklarining foydalilik va operasion faoliyat (asosiy faoliyat) dan ko'radigan daromadlariga katta tahdid solishi mumkinligi nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda ushbu ko'rsatkichlarni ham tahlil qilishga qaror qildik. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, so'nggi 3 yil davomida, mamlakat bank tizimining sof foydasi muntazam ravishda o'sish bilan xarakterlangan bo'lib, bunga quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

- yuqorida aytib o'tganimizdek, Markaziy bank tomonidan olib borilgan qat'iy pul-kredit siyosati, inflyasiya darajasining pasayishi hamda tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'zgarishlarning mamlakat iqtisodiyoti uchun ijobiy tomonga siljiy boshlagani kabilar natijasida asosiy foiz stavkasining pasayganligi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Markaziy bank asosiy stavkasining kamaytirilishi tijorat banklari daromadining oshishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi;
- so'nggi uch yil davomida bank sektorini qayta isloh etish uchun amalga oshirilgan ishlar natijasida tijorat banklarining kapitali ko'paydi (2 – jadvalga qarang);

3 – jadval. O'zbekiston bank tizimining 2022 – 2024 yillardagi foyda va zarar to'g'risidagi umumlashtirilgan hisobot ko'rsatkichlari [17]

| Ko'rsatkichlar | 2022 | | 2023 | | 2024 | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | trln so'm | mlrd doll. | trln so'm | mlrd doll. | trln so'm | mlrd doll. |
| Sof foizli daromadlar | 16595 | 1531 | 24162 | 2152 | 28996 | 2350 |
| Sof foizsiz daromadlar | 12307 | 1136 | 21370 | 1904 | 28781 | 2333 |
| Ko'rilishi mumkin bo'lgan kredit zararlarini baholash | 12221 | 1128 | 13863 | 1235 | 18413 | 1492 |
| Ko'rilishi mumkin bo'lgan nokredit zararlarni baholash | 333 | 31 | 4213 | 375 | 4645 | 376 |
| Operasion xarajatlar | 10998 | 1015 | 14877 | 1325 | 19563 | 1586 |
| Daromad solig'i | 1465 | 135 | 2587 | 230 | 2775 | 225 |
| Foydaga tuzatishlar | 0 | 0 | 1 | 0 | 0 | 0 |
| Sof foyda | 3885 | 359 | 9993 | 890 | 12380 | 1003 |

- potensial risklar, shu jumladan foiz riskining tijorat banklari kapitali va likvidligiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini minimallashtirish maqsadida tijorat banklarining faoliyati doimiy ravishda Jahon banki ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan nazorat indikatorlari va Xalqaro valyuta jamg'armasining moliyaviy barqarorlik indikatorlari asosida tahlil kilib turildi, shuningdek turli xil ssenariylar bo'yicha stress – testlar o'tkazildi;

- bu stress – testlarning natijalariga koʻra tijorat banklarining aktivlarini ishonchli baholashni oʻtkazish, zarar koʻradigan vaziyatlar uchun etarlicha zaxiralarni shakllantirish, eng yirik mijozlarning moliyaviy holatini monitoring qilish, muammoli kreditlarni undirish tizimini takomillashtirish, bank faoliyatiga tegishli boʻlmagan mulkni bank balansidan chiqarish, xarajatlarni optimallashtirish, shuningdek kapital va likvidlik buferlarini oʻz vaqtida shakllantirish boʻyicha tegishli chora – tadbirlar amalga oshirildi;

- resurslarning narxlari oʻsib borayotgan va tashqi resurs bozorlarida raqobat kuchayib borayotgan sharoitda iqtisodiyotning kreditlarga boʻlgan oʻsib borayotgan talabini qondirish va bank tizimiga uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini jalb qilish uchun zarur shart – sharoitlarni yaratishga katta e'tibor qaratildi va h.k.

Shu oʻrinda alohida ta'kidlab oʻtish joizki, mamlakatimizda kreditlar boʻyicha oʻrtacha yillik foiz stavkasining yuqoriligi ularning qaytmaslik ehtimolini oshirishga sabab boʻlayotgan omillardan biri boʻlib, bu bankning asosiy faoliyatiga foiz riskining tahdidini oshirishi mumkin. Mamlakatimizda buning natijasida yuzaga keladigan muammoli kreditlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratilayotgan boʻlib, 3-rasmda keltirilgan ma'lumotlar fikrimizning yaqqol isboti boʻla oladi. Rasmdagi ma'lumotlardan koʻrinib turganidek, muammoli kreditlarning ulushi muntazam ravishda pasayish tendensiyasiga ega boʻlib, bunga erishish uchun quyidagi chora – tadbirlar amalga oshirilgan:

- tijorat banklari tomonidan Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari bilan hamkorlikda muammoli kreditlar toʻlovi boʻyicha oylik reja – grafik ishlab chiqildi;

- davlat ulushi bor banklarda muammoli kredit qarzdorligini undirish boʻyicha tegishli ishchi guruhi yaratildi va muammoli kreditlarga ega mijozlar bilan individual ishlash tizimli ravishda amalga oshirildi;

- muammoli kreditlarning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga koʻrsatadigan salbiy ta'sirini oldini olish va ularning ulushini kamaytirish maqsadida banklarning kredit portfellari banklar, hududlar va segmentlar boʻyicha muntazam ravishda tahlil qilib borildi;




3- rasm. 2022 – 2024 yillarda muammoli kreditlar ulushining dinamikasi [18]

- bundan tashqari, hududlarda muammoli qarzdorlikni undirish samaradorligini oshirish maqsadida tijorat banklarining rahbar xodimlaridan tashkil topgan Markaziy bank raisining oʻrinbosarlari boshchiligida ishchi guruhlari yaratilib, joylarda muammoli kreditlarni undirish holati oʻrganildi.

Umuman olganda, foiz riski ta'sir qiladigan banklarning balans koʻrsatkichlari va moliyaviy natijalari borasida sezilarli ijobiy natijalarga erishilgan. Biroq, kreditlar boʻyicha foiz stavkasining yuqoriligicha turishi foiz riski tahdidini yanada kuchaytirishi mumkin boʻlib, bu muammoli kreditlar ulushida oʻz ifodasini topmoqda. Bu esa ilmiy - amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilishi zaruratini yuzaga keltirmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, mamlakatimizda Markaziy bank boshchiligida amalga oshirilayotgan oqilona va samarali pul-kredit siyosati hamda Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun oʻrnatilgan prudensial normativlar natijasida foiz riskining tijorat banklari faoliyatiga koʻrsatadigan salbiy ta'sirini ma'lum darajada

yumshatishga erishilmoqda. Biroq, shuning bilan birga, tadqiqotimiz natijasida amalga oshirilgan tahlillarimiz bu borada hali ham echimini kutayotgan muammo va kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Quyida bunday holatni bartaraf etish bo'yicha o'z ilmiy-amaliy tavsiyalarimizni keltirib o'tamiz:

Tijorat banklarida valyuta ayirboshlash kurslaridagi o'zgarishlarni to'g'ri prognoz qilish tizimini rivojlantirish kerak bo'lib, buning uchun quyidagilarga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi: makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (inflyasiya, foiz stavkalari, YaIM, bandlik darajasi, tashqi savdo balansi va h.k.) tahlili; ekonometrik modellardan foydalanish; xalqaro moliyaviy bozorlar monitoringi; texnik tahlil asosida prognoz qilish; sun'iy intellektdan foydalanish; mijozlarning hatti-harakatlarini tahlil qilish; xedjerlash (ya'ni, risklarni sug'urtalash);

Tijorat banklarida kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini muntazam ravishda pasaytirib borish kerak bo'lib, buning uchun quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb uylaymiz: bank xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish; mijozlar bazasini kengaytirish va kredit portfelini diversifikasiya qilish; kredit risklarini baholashni takomillashtirish; banklararo raqobatni rivojlantirish; kreditlashning ustuvor yo'nalishlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash; moliyaviy savodxonlik va kreditlash shartlarining shaffofligini oshirish.

- Tijorat banklari kredit portfelidagi muammoli kreditlar ulushini kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish kerak bo'lib, bunda quyidagilarga e'tibor qaratishni tavsiya etamiz: kredit oluvchilarning to'lov qobiliyatini baholash tizimini takomillashtirish; risklarga boshqarishga nisbatan differensial yondashuvni rivojlantirish; real vaqt rejimida kredit portfeli monitoringi; kreditlarni kuzatib borish tizimini mustahkamlash; kreditlarni restrukturizasiya qilish proseduralarini takomillashtirish; xodimlar malakasini oshirish; me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish.

Umuman olganda, yuqoridagi tavsiyalar ushbu maqolani yozish mobaynida amalga oshirilgan tadqiqot va amaliy tahlillar natijasida ishlab chiqilgan bo'lib, tijorat banklari rahbar xodimlari va mutaxassislarining ularni amalga oshirishga e'tibor qaratishi foiz riskining tijorat banklari faoliyatiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirlarini ma'lum darajada oldini olish va bartaraf etishga xizmat qilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yati**


1. John Stephens. Interest Rate Risk Management in Today's Economy (online). Workiva. Available from: https://www.workiva.com/blog/interest-rate-risk-management-in-banks (Published: November 29, 2023).
2. Grant E. Rozenberger & Peter Zimmerman. "Interest Rate Risk at US Credit Unions". Working Paper No. 24 – 03. Federal Reserve Bank of Cleveland. 19 pages. https://doi.org/10.26509/frbc-wp-202403. (Accessed 23 Sept. 2024).
3. Самойлов Н. А. Инструменты управления процентными рисками. Журнал "Теория и практика сервиса: экономика, социальная сфера, технологии". 2020, №1 (43). Санкт – Петербург: Санкт – Петербургский государственный экономический университет, 2020. Стр. 29 – 33.
4. Соловьева Н. Е. и Голубцова Ю. А. Виды и классификации финансовых рисков. Доступно: https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/296561/1/103-107.pdf (Дата обращения: 23.09.2024).
5. Grant E. Rozenberger & Peter Zimmerman. "Interest Rate Risk at US Credit Unions". Working Paper No. 24 – 03. Federal Reserve Bank of Cleveland. 19 pages. https://doi.org/10.26509/frbc-wp-202403. (Accessed 23 Sept. 2024).
6. Юлдашева И. З., Хожимухамедова Ш. И. и Баходиров О. Н. Вопросы оптимизации и анализа доходов в коммерческих банках Узбекистана // "EUROPEAN SCIENTIFIC CONFERENCE" XXXVI International scientific conference. Научное издание. Анапа: ООО «НИЦ ЭСП» в ЮФО, 2021. Стр. 81 – 84.
7. Саитқулов А. Н. Тижорат банкларида фоиз рискини баҳолаш услубиёти // "Иқтисодиётда инновациялар" журнали. 2023. 6 жилд. 1 сон. Тошкент, 2023. 46 – 51 бетлар.
8. Хайдаров З. Ш. Внедрение международных требований при управлении коммерческих банков: региональные аспекты (на примере банковской системы Республики Узбекистан) (онлайн). CYBERLENINKA. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/vnedreniya-mezhdunarodnyh-trebovaniy-pri-upravlenii-komercheskih-bankov-regionalnyy-aspekty-na-primere-bankvskoy-sistemy-respubliki/viewer (Дата обращения: 23.09.2024).
9. Саитқулов А. Н. Тижорат банкларида фоиз рискини баҳолаш услубиёти // "Иқтисодиётда инновациялар" журнали. 2023. 6 жилд. 1 сон. Тошкент, 2023. 46 – 51 бетлар.
10. www.cbu.uz - Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий вебсайти.
11. Ўзбекистон Республикасининг "Банклар ва банк фаоияти тўғрисида" ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида" ги Қонуни. 2019 йил 5 ноябрь, ЎРҚ-580-сон.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Капитал бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги Фармони. 2021 йил 13 апрель, ПФ-6207-сон.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Капитал бозорини қўллаб-қувватлашнинг самарали механизмларини жорий этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ги Қарори. 2022 йил 17 январь, ПҚ-90-сон.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Иқтисодиётда давлат иштирокини қисқартиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида" ги Қарорb. 2024 йил 19 апрель, ПҚ-162-сон.
15. Мирзиёев Ш. М. "Банк тизимидаги трансформация жараёнлари кўриб чиқилди". Президент Шавкат Мирзиёев томонидан ўтказилган банк тизимида трансформация ва хусусийлаштириш жараёнлари муҳокамаси бўйича йиғилиш. 20.11.2023. www.president.uz
16. www.cbu.uz - Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий вебсайти.
17. www.cbu.uz - Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий вебсайти.
18. Годовой отчет 2023. Ташкент: ЦБ Республики Узбекистан, 2024. 185 стр.

TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

## YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

### Ilmiy elektron jurnal

### (MAXSUS SON)


**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN THE CONTEXT OF TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

TASHKENT STATE UNIVERSITY

2030

23-24 OCTOBER 2025

UZBEKISTAN STRATEGY 23-24 OCTOBER

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS"

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT OF THE ECONOMY

23-24 2025 OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ «УЗБЕКИСТАН –2030»

2nd CONFERENCE:
BANKING AND FINANCIAL SYSTEM AND DIRECTIONS FOR DEVELOPING THE PRIVATE SECTOR

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

https://strategy2025.tsue.uz/

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS

ФОРУМ

UZBEKISTAN STRATEGY

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com
Telefon: +998 93 124 57 11
Sayt: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz
Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISSN: 2992-8982
ISBN 978-9910-8110-8-1

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN THE CONTEXT OF TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI VA XUSUSIY SEKTORNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI